

## TEZAURUSLARDA LEKSIK-SEMANTIK MOHIYATNING IFODASI

**Israilova Saodat Turapovna**

O'zbekiston Milliy universiteti dots.i.o. f.f.f.d.

E-mail: [israilovas404@gmail.ru](mailto:israilovas404@gmail.ru)

**Abstract.** Thesaurus is a dictionary that covers all the words of a certain language and fully reflects their usage in the text. In addition, ideographic dictionaries, in which lexical units related to a certain field of science are arranged in thematic order, and semantic, type-genus, synonymous and other relationships between these units, are among thesaurus dictionaries. Theoretically, the thesaurus is one of the possible models of the semantic system of the lexicon.

**Keywords:** thesaurus, dictionaries, lexical-semantic field, paradigmatic, syntagmatic, hierarchical relations.

**Abstrakt.** Tezaurus lug'atlar muayyan tildagi barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo'llanish holatlarini to'la-to'kis aks ettiradigan lug'at. Bundan tashqari, biron bir ilm-fan sohasiga oid lug'aviy birliklar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar o'rtasidagi semantik, ya'ni tur-jins, sinonimik va boshqa munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug'atlar ham tezaurus lug'atlar qatoridadir. Nazariy jihatdan tezaurus leksika semantik tizimining ehtimoliy modellaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** tezaurus, lug'atlar, leksik-semantik maydon, paradigmatic, sintagmatic, ierarxik munosabatlar.

**Kirish.** Lug'at boyligimizda belgi bildiruvchi maxsus so'zlar belgilarning hammasini aniq ifodalay olmaydi. Shuning uchun tilda, ko'pincha, bir belgi bildiruvchi so'z bir necha belgini ifodalaydi va semantik qamrovi kengayadi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkozional ma'nolari faqat nutq jarayonida yuzaga chiqadi. Belgi bildiruvchi so'zlar adabiy tilda, shevada va arxaik variantida qo'llanilishiga ko'ra turlarga ajraladi hamda har birining tilda o'ziga xos o'rni mavjud.

Tezaurus aslida mohiyat jihatidan semantik aloqalari tizimini belgilaydi. Tezaurus – bu leksemalar orasidagi semantik munosabatlarni ko'rsatuvchi, berilgan mavzu maydonini tavsiflovchi atamalar to'plami. Belgilar va ular ifodalayotgan turli ma'nolarni o'rganish jarayonida biz turli lug'atlarga murojaat etamiz. Ularning ichida esa tezaurus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Chunki bu kabi lug'atlarda so'zning barcha ma'no qirralari, nozik farqlari berib o'tiladi.

Tezaurus tarkibidagi so'zlar alfavit bo'yicha emas, balki mavzu va mavzular majmui sifatida shakllangan lingvistik lug'at hisoblanadi. Tezaurus – so'zlar va so'z birikmalari o'rtasidagi turli munosabatlar haqidagi axborotlarni saqlashga xizmat qiluvchi ma'lumotlar bazasidir.

Tezaurus lug'atlar leksemalar orasidagi semantik munosabatlarni ko'rsatuvchi, berilgan mavzu maydonini tavsiflovchi atamalar to'plamidir. E'tiborlisi, tezaurus boshqa manbalarni tasniflashdan tashqari, mustaqil bilimlar bazasi sifatida yaratilishi va ishlatilishi mumkin, bunda ma'lum tushunchalarning fan sohasidagi o'rni ko'rsatiladi.

Tezaurus lug'atlar bir so'z semantikasi bilan bog'liq barcha belgilarni qamrab oladigan, matnda qo'llanish xususiyatlarini to'liq aks ettiradigan kompyuter lug'atidir. Tezaurus giperhavola vositasida boyitilgan katta hajmdagi ma'lumotlar bazasidir.

Xususan, “ko’k” leksemasining barcha ma’noviy semalarini yig’ib, quyidagicha tezaurusini ishlab chiqdik:

KO’K		
No	Tezaurus qolipi	So’zning semantik pasporti
1.	So’zning yoki til birligining morfologiya va sintaksisga aloqadorligi:	O’zbek tilida bir necha ko’k omonimi mavjud bo’lib, “rang” ma’nosidagi ko’k so’zi tezaurusini ko’rib chiqamiz. <b>Ko’k III</b> “rang” – rang-tus bildiruvchi sifat.
2.	Talaffuz qilinishi:	<i>ko’k, kuk</i> (Buxoro shevasida)
	Semantik tarkibi:	<p>A) so’zning asl ma’nosi: <b>Ko’k 1.</b> Tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori.  <b>2.</b> Kul rangidagi, kulrang. <i>Ko’k bo’ri. 3 s. t.</i> Yashil, sabza. <i>Ko’k o’t.</i>  <b>Ko’chma ma’nosi:</b> s. t. (3-sh. birl. shaklida –<b>ko’ki</b> (dollar). (O’TIL,II,451). <b>Pul birligiga nisbatan qo’llanganda ham “yashil rang” ma’nosini bildiradi. Afg’on xalqi dollarga nisbatan yashil so’zini ishlatadi.</b></p> <p>B) sinonimi: <i>ko’k–moviy–zangori–havo rang–(nilufar)–(yashil).</i></p> <p>V) omonimi: <b>ko’k I.</b> Yer ustida gumbaz shaklida ko’rinib turadigan havo qatlami; osmon;  <b>ko’k II.</b> O’sayotgan o’t-o’simlik, o’t-o’lan; maysa, ko’kat;  <b>ko’k III.</b> Bahorda yangi chiqqan, somsa, chuchvara kabi ovqatlarga ishlatiladigan otquloq, yo’ng’ichqa, jag’jag’, ismaloq kabi ko’katlarning umumiy nomi;  <b>ko’k IV.</b> ko’katlar qo’shib tayyorlangan ovqat;  <b>ko’k V.</b> Kashnich, janbil, ukrop kabi ovqatga qo’shib yeyiladigan rezavor o’simliklar, ko’kat.</p> <p>G) antonimi: mutlaq antonimi yo’q. Ko’chma ma’noda antonimi mavjud: <i>ko’k</i> – yashillik, yasharish; <i>sariq, za’faron</i> – sarg’ayish, xazonrezgi.</p> <p>D) paronimi: –</p> <p>Ye) giperonimi: <i>rang-tus</i></p> <p>J) giponimi: <i>yashil, qizil, qora, oq, zangori, pushti, sariq.</i></p>
4.	Yaqin ma’nodagi so’zlar:	<i>ko’klam, ko’klamgi, ko’kalamzor, ko’kalamzorlashtirish, ko’kat, ko’katzor, ko’kchi, ko’kay (tomir), ko’kchako’ka, ko’ka guli, ko’ksulton, ko’kmaraz (kasallik), ko’kyo’tal, ko’ksuv, ko’knor (o’simik), ko’kpoya, ko’kqarg’a, ko’kqo’ton, ko’kantoy (qush), ko’kanak (dog’), ko’karmoq, ko’gal (sheva), ko’ganlamoq (bog’lamoq), ko’klamoq,</i>
5.	Etimologiyasi:	turkiy “ildiz”
6.	Frazeologizmlarda qo’llanishi:	“Ko’knori xayol qilmoq”, “Boshi ko’kka yetdi”, “Yeru ko’kka ishonmaslik”, “Kulini ko’kka sovurmoq” q. sovurmoq “Ko’kka ko’tarmoq”, “Tutuni ko’kka chiqmoq”, “Ko’kayini kesmoq” (yoki kuydirmoq)
	Birikmalar tarkibida qo’llanishi:	<i>Ko’k qalam, ko’k somsa, ko’k chuchvara</i>
7.	Boshqa tillarda qo’llanishi:	rus tilida: <i>siniy</i> ; ingliz tilida: <i>blue</i>

Tezaurus ko’k leksemasidagi quyidagi semantikani yoritish imkonini beradi:

**Ko’k** sifat-leksemasida quyidagi semalar mavjud:

1) *moviy*; 2) *havo rang*, 3) *yashil*; 4) *kul rang*; 5) *g’o’r*

T/r	So‘z birikmalari	“Ko‘k” sifat-leksemasida mavjud semalar			
		moviy	havo rang	yashil	kul rang
1.	Ko‘k qalam				
2.	Ko‘k choy	-	-	+	-
3.	Ko‘k osmon	+	+		
4.	Ko‘k bo‘ri				+
5.	Ko‘k somsa	-	-	+	-
6.	Ko‘m-ko‘k o‘tloq			+	-

“Ko‘k” leksemasining birikma hosil qilishida o‘ziga xos jihatlar ko‘zga tashlanadi.

Ko‘k o‘t deyish mumkin, lekin ko‘k o‘tloq, deb bo‘lmaydi. Bu birikmada “ko‘k” leksemasi, albatta, fonetik usuldagi orttirma darajada bo‘lishi kerak. Qiyoslang: ko‘k o‘tloq – ko‘m-ko‘k o‘tloq.

T/p	Кўк асосидан yasalgan leksemalar	“Ko‘k” sifat-leksemasida mavjud semalar				
		moviy	havo rang	yashil	kul rang	g‘o‘r
1.	ko‘klam	-	-	+	-	-
2.	ko‘kalamzor	-	-	+	-	-
3.	ko‘kat	-	-	+	-	-
4.	ko‘ksulton	-	-	+	-	+
5.	ko‘kcha	-	-	+	-	+
6.	ko‘ksuv	-	+	-	-	-

Jadvalda ko‘rinishicha, “ko‘k” leksemasining valentlik imkoniyatlarida “moviy”, “havo rang”, “yashil”, “kul rang” semalari namoyon bo‘lgan, “g‘o‘r” semasi esa ko‘zga tashlanmaydi. Bu sema ko‘k asosidan shakllangan yasama leksemalarda namoyon bo‘ladi. “Ko‘k” leksemasining derivatsion tizimida “yashil” semasi faol ekanligi ko‘rinadi. Ko‘k rang bildiruvchi leksemasi quyidagi leksemalarning yasalish asosi bo‘lgan: ko‘klam, ko‘klamgi, ko‘kalamzor, ko‘kalamzorlashtirish, ko‘kat, ko‘katzor, ko‘kchi, ko‘karmoq, ko‘karmoq. Bu leksemalar “yashil” semasiga asoslangan.

Shunday qilib, tezaurus – semiotik tizim bo‘lib, uning elementlari og‘zaki belgilardir. Birinchidan, barcha tezaurus lug‘atlari umumiy lug‘atlar kabi axborotni qidirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq bosma tezaurus lug‘atlarda ma‘lumot qidirish bilan bog‘liq muammolarga duch kelish mumkin. Elektron tezauruslar, aksincha, so‘zni o‘zlari izlaydilar va bir qarashda to‘g‘ri so‘zni tezkor izlash muammosiga yechim topishi mumkin. Biroq bu yuqori sifatli dasturlash tillarini ishlab chiqishni talab etadi.

Ikkinchidan, axborotni izlash har doim xotira toifasiga bog‘liq bo‘lib, tezaurus lug‘atlarining mualliflari tavsiya etilgan adabiyotlar kerakli so‘zni xotiradan chiqarish uchun zarur ekanligini yozadilar. “So‘z xotirasi”, albatta, so‘z birikmalariga asoslanadi, chunki tezaurus lug‘atlari so‘zlarni xotiradan boshqa so‘zlar bilan bog‘lash orqali so‘z ma‘nolarini topishda yordam beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, tezaurus lug‘atlarining mazmuniga asoslanib, tezaurus tarmog‘ida so‘zlar ma‘lum bo‘lgan leksik aloqalar paradigmatic, sintagmatic va assotsiativ aloqalar bilan birlashtirilishi mumkin. Bundan tashqari, qaysi biri muhimroq ekanini aytish qiyin, chunki ba‘zi lug‘atlarda, asosan, sinonim aloqalar mavjud, boshqalarda – asosan kontekstual, uchinchi

sinonimlar kontekst bo'yicha aniqlanadi, to'rtinchi kontekstda ma'lum bir sinonimdan foydalanishni ko'rsatadi va hokazo.

Lug'at shaklida yaratilgan tezaurus ushbu tizimning modelidir. Shunga ko'ra, tezaurusni o'rganish va natijalarni ilmiy jamoatchilikka taqdim etish muqarrar ravishda obyekt va uning modeli o'rtasidagi munosabatlarning metodologik muammolari bilan bog'liq masalalarni keltirib chiqaradi, ularning asosiy qismi ob'ektning ontologiyasini alohida mavzudagi modelda to'liq ochib bera olmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, turli mualliflar tomonidan taqdim etilgan modellarni solishtirish mumkin, ammo har bir model, albatta, o'rganilayotgan shaxsning faqat bir jihatini ochib beradi. Tezaurusning ontologik mohiyatini o'rganishda eng munosib tadqiqot – usullarining empirik modeli, ya'ni til faktlarini yig'ish va qayta ishlash – xulosalarning nazariy umumlashtirilishi va mantiqiy asoslanishidir.

Alisher Navoiy davrida qo'llangan ko'k II “kuy”, ko'k IV “qadoq”, ko'k VI “yalanglik” leksemalari hozirgi adabiy o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi. “Kuy” ma'nosidagi “ko'k” leksemasi “olov, biror issiq taomning teri sezgi a'zosiga ta'siri” ma'nosidagi *kuy*(moq) bilan semantik jihatdan bog'lanadi. Chunki *kuymoq* leksemasida “og'riq”, “iztirob”, “dard” semalari mavjud bo'lib, nola, ohang bilan aloqadordir. “Qadoq” ma'nosidagi *ko'k* leksemasi iste'moldan chiqqan bo'lsa, *ko'karish*, *ko'karmoq* leksemalarida “rangi o'zgarish”, “dag'allashish” semalari namoyon bo'ladi.

“Yalanglik” ma'nosidagi *ko'k* ayrim toponimlar tarkibida saqlanib qolgan. *Ko'kdala* toponimi hozirgi *ko'k+dala* modelidagi birikuvdan tuzilmagan. Toponimning qadimiyligi ham uning etimologiyasi bu qadar oson aniqlanmasligini asoslaydi. Bu modeldagi etimologiya mantiqqa ham to'g'ri kelmaydi. *Dala* so'zining quyidagi ma'nolari qayd etilgan: *Dala* 1. Aholi yashaydigan joydan tashqarida bo'lgan, ekin ekiladigan yer, ekinzorlar. 2. Shahardan tashqaridagi bog', qo'rg'on va yer-suvlar. 3. Umuman keng tabiiy sayhon yer, yovon. 3. Uydan (xonadan) tashqari joy, hovli, ko'cha [O'TIL,I,548].

Ko'rinadiki, *dala* so'zining “keng tabiiy sayhon yer, yovon” (3) tushunchasini ham ifodalaydi. Demak, *Ko'kdala* toponimidagi “ko'k” rang tushunchasini emas, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida qayd etilgan “yalanglik” ma'nosini anglatadi. *Dala* so'zi boshqa so'zlar bilan ham birga qo'llangan: *dala-tuz* – *dala* va ekilmay yotgan sayhon, bo'z yerlar [O'TIL,I,548].

*Ko'k* rang leksemasining “kul rangidagi, kulrang” ma'nolari “Muhokamat ul-lug'atayn”da qayd etilmagan. Bu so'zning bo'ri rangiga nisbat berishi tushunchaning bo'ri totemi amalda bo'lgan davrlarga borib taqalishini asoslaydi. **Alisher Navoiy asarlarida shakldoshlik hosil qiluvchi so'zlar maxsus o'rganilgan, buyuk mutafakkirning so'z qo'llash mahorati, so'z semantikasining nozik bilimdoni sifatidagi qirralari shakldosh so'zlar talqini misolida yoritilgan.**

Shakldosh so'zlarni tavsiflashda, ularning xususiyatini yoritishda “Muhokamat ul-lug'atayn” dagi ma'lumotlar qimmatli manba hisoblanadi.

*Ko'k* rang leksemasining so'zlashuvdagi “pul birligi” ma'nosi [O'TIL,II,451] keyingi davr ijtimoiy munosabatlari mahsulidir.

**“Ko'k” leksemasining izohli lug'atda qayd etilgan “yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turadigan havo qatlami; osmon”, “o'sayotgan o't-o'simlik, o't-o'lan; maysa, ko'kat”, “bahorda yangi chiqqan, somsa, chuchvara kabi ovqatlarga ishlatiladigan otquloq, yo'ng'ichqa, jag'jag', ismalok kabi ko'katlarning umumiy nomi va shunday ko'katlar qo'shib tayyorlangan ovqat”,**

“kashnich, janbil, ukrop kabi ovqatga qo‘shib yeyiladigan rezavor o‘simliklar, ko‘kat” [O‘TIL,II,451] ma‘nolari bu tushunchalarning alohida leksema sifatida qayd etilishiga asos bo‘ladi. Chunki bu tushunchalarda “belgi” semasi emas, “narsa” semasi ifodalanadi. Ko‘k rang leksemasidan semantik usul orqali, metonimiya asosida yangi, ot leksemalar shakllangan: *ko‘k (sifat) → ko‘k (ot)*. Bugungi kunda mazkur tushunchalar belgi ifodasidan narsa-buyum ifodasiga ko‘chgan. Lisonda ham narsa nomi, ot sifatida o‘rinlashgan. “Yer ustida gumbaz shaklida ko‘rinib turadigan havo qatlami; osmon” ma‘nosidagi “*ko‘k*” leksemasida “yuksaklik” semasi shakllangan va u bir qator iboralarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan, yadro sifatida ibora semantikasi reallashuvini ta‘minlagan.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin: Tezaurus lug‘atning avtomat ravishda tartibga solish, saqlash va qidirish uchun ishlatiladigan tizimlarda qo‘llanadigan, ma‘lumotga oid ko‘rinishi bo‘lib, bir leksema mazamunini ochib beruvchi kalitdir. Shuningdek, u leksemalar orasidagi semantik bog‘lanishlarni namoyon qiladi hamda bevosita semantika bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tezaurus tarkibidagi so‘zlar alfavit bo‘yicha emas, balki mavzu va mavzular majmui shaklida keltiriladi, bilimlarning qaysidir sohasiga tegishli bo‘lgan so‘zlar tematik jihatlariga ko‘ra joylashtirilgan bo‘ladi. Tezaurus leksik birliklarning matndagi qo‘llanilishi misollar orqali yoritilgan maksimal darajadagi to‘liq lug‘atdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. Birinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 452 b.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1983. – 656 b.
3. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. – M., 1960. –S. 310.
4. Dadaboev H., Xolmuratova M. “Qutadg‘u bilig”dagi so‘zlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2018. – 384 b.
5. DTS – Drevnetyurkskiy slovar. – L., 1969. – 677 c.
6. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazykov. Obshetyurskie i mejtyurskie leksicheskie osnovy na bukvy “K”, “Q”. – M.: 1997. – 363 c.
7. Rahmonov B. Mumtoz adabiyot manbalari lug‘ati. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2009. – 430b.
8. Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazykov.VI. – Moskva: Nauka, 1974. – 767 c.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. I–680 b.; II– 672 b.; III – 688 b.; IV - Toshkent, 2008. -608 b.; V – 592b.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 680 b.